

**YANGI O'ZBEKISTON JAMIyatIDA IJTIMOIY
ME'YORLAR VA IJTIMOIY ONG
O'ZGARISHLARI DIALEKTIKASI**

Berdikulova Surayyo Aslamovna, O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, (PhD)

**DIALECTICS OF SOCIAL NORMS AND CHANGES
OF SOCIAL CONSCIOUSNESS IN THE SOCIETY
OF NEW UZBEKISTAN**

Berdikulova Surayyo Aslamovna, Associate Professor, National University of Uzbekistan, (PhD)

**ДИАЛЕКТИКА СОЦИАЛЬНЫХ НОРМ И
ИЗМЕНЕНИЙ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В
ОБЩЕСТВЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

Бердикулова Сурайё Асламовна, доцент Национального университета Узбекистана, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston jamiyatida ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy ong o'rtaqidagi dialektik aloqa, ijtimoiy-siyosiy islohotlar, modernizatsiya jarayonlari va globallashuvning ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy ongning o'zgarishiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, global o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy ongning jamiyat rivojiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy ong, dialektika, islohotlar, modernizatsiya, globallashuv.

Abstract: This article analyzes dialectical communication between social norms and social consciousness in the new Uzbek society, socio-political reforms, modernization processes and the impact of globalization on changes in social norms and social consciousness. Also, in the context of global changes, social norms and the influence of social consciousness on the development of society are considered.

Keywords: development of society, social norms, social consciousness, dialectics, reforms, modernization, globalization.

Аннотация: В данной статье анализируется диалектическая связь социальных норм и общественного сознания в новом обществе Узбекистана, влияние социально-политических реформ, процессов модернизации и глобализации на изменение социальных норм и общественного сознания. Также рассматривается влияние социальных норм и общественного сознания на развитие общества в условиях глобальных изменений.

Ключевые слова: прогресс общества, социальные нормы, общественное сознание, диалектика, реформы, модернизация, глобализация.

KIRISH. Global o'zgarishlar bugungi kunda barcha jabhalarni qamrab oldi, xususan inson ongi va axloqida ham muhim o'zgarishlar bo'lmoqda. Jamiyat taraqqiyoti negizida ijtimoiy me'yor va

ijtimoiy ong dialektikasi uzviy bog'liqlikda rivojlanadi hamda jamiatni modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi.



[https://orcid.org/0009-0001-
2593-5174](https://orcid.org/0009-0001-2593-5174)
e-mail:
berdikulova_s@gmail.com

Ijtimoiy me'yorlar – bu jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan va o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari va standartlaridir.

Ijtimoiy ong esa – bu jamiyatning o'z-o'zini anglash darajasi, qadriyatlari, e'tiqodlari va dunyoqarashidir.

Ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy ong dialektik aloqada bir-biriga ta'sir etib, jamiyat rivojiga turtki beradi. Ijtimoiy me'yorlarning ijtimoiy ongga, jamiyatdagi vaziyatga va u bilan bog'liq tendensiyalarga ta'siri tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilmagan. Shu bilan birga, jamiyatning ijtimoiy yaxlitligi va organik tartibini saqlash muammosi, shuningdek, ijtimoiy hayotning boshqa sohalari yuqoridaqgi hodisalarini ko'rib chiqishni talab qiladi. Maqolada shu kabi masalalar tahlili alohida o'rinn tutadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA. Ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy ong masalalari sotsiologiya, psixologiya, falsafa va siyosatshunoslik kabi turli sohalarda o'rganiladi. E.Dyrkgeym ijtimoiy me'yorlarning jamiyat birligini ta'minlashdagi roli muhimligini ta'kidlagan[1]. K.Marks ijtimoiy ongning iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liqligini ko'rsatgan[2]. M.Veber esa qadriyatlarning ijtimoiy harakatga ta'sirini o'rgangan[3]. Xususan, nemis sotsiologi M.Veber madaniyat odamlarga dunyoga ma'no berish, odamlarning o'zaro munosabatlarini baholash imkonini beradi deb asoslagan. Madaniyat eng avvalo ijtimoiy normalar mazmunida ifodalanadi.

Yurtimiz olimlaridan A.Begmatov, A.Erkayev, N.Komilov, Q.Nazarov, M.Bekmurodov, B.To'ychiyev va boshqalar milliy qadriyatlar, ma'naviyat va ijtimoiy ong masalalarini tadqiq qilgan. Ushbu tadqiqotlar Yangi O'zbekiston jamiyatida ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy ongini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy normalar tizimi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy rivojlanishining erishilgan darajasini aks ettiradi, ularda odamlar hayotining sifati, mamlakat hayotining tarixiy va milliy xususiyatlari, davlat hokimiyatining tabiatini aks etadi. "Ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi

normalar obyektiv qonunlar, ijtimoiy rivojlanish tendensiylarining harakatlarini aks ettiradi va konkretlashtiradi. Ushbu qonunlarning obyektiv tabiatini ularning odamlar tomonidan ilmiy tushunilishi va maqsadli ijtimoiy faoliyatda ishlatilishi bilan uzviy bog'liqidir"[4].

Shunday qilib, ijtimoiy norma – bu jamiyat a'zolari tomonidan doimiy takrorlanadigan ijtimoiy munosabatlar negizida vujudga keladi va muayyan ijtimoiy tuzilmalar, guruhlar, institutlar tomonidan o'rnataladigan kishilar jamoasining qonun-qoidasidir.

Ijtimoiy munosabat va ijtimoiy me'yorlarni farqlash muhimdir. Agar birinchisi ommaviy xarakterga ega bo'lmasa va ijtimoiy subyektlar tomonidan qabul qilinmasa, ular ijtimoiy ongni belgilovchi omil bo'lmaydi va natijada ijtimoiy normaning xususiyatlariga ega bo'lmaydi. Bu yerda davlat tomonidan qabul qilinmagan, jamiyat tomonidan qabul qilinmagan qonunni qabul qilish misol bo'ladi, bu faqat ijtimoiy munosabat bo'ladi va jamiyat uchun odatiy holga aylanmaydi. Ijtimoiy normalar o'z xususiyatlarini yo'qotib, ijtimoiy munosabatlarga aylanganda teskari tendensiya mavjud. Shu munosabat bilan, ijtimoiy me'yorning o'ziga xos xususiyati uning umume'tirof etilishi bo'lib, ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishda ijtimoiy subyektlar tomonidan rasmiy ma'qullanishi va unga rioya qilinishini belgilaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ijtimoiy me'yorlar tizimi jamiyatning erishilgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy rivojlanishi darajasini aks ettiradi, ular odamlarning hayot sifatini, mamlakat hayotining tarixiy va milliy xususiyatlarini, davlat hokimiyatining mohiyatini aks ettiradi. Ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlar kuzatuvlari ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish darajasi va ijtimoiy ongning namoyon bo'lish usullarini aniqlashga yordam beradi.

Ijtimoiy me'yor va ijtimoiy ongning yanada oshishi jamiyatda turli sohalar muammolarni o'zaro hamkorlikda yechishga va ushbu muammoni bartaraf etishda faol ishtirok etishga imkon beradi. Masalan, pandemiya davrida sanitariya qoidalariga rioya qilish va emlashning ahamiyatining aholi o'rtasida keng targ'ib qilinishi ushbu muammoni

birgalikda bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xususan, ijtimoiy ongning oshirilishi mavjud ijtimoiy muammolarga o‘z ta’sirini ko‘rsatib yechim bo‘la oladi:

Birinchidan, ijtimoiy ongning oshishi odamlarni ijtimoiy harakatlarga jalb qiladi. Fuqarolar huquqlari, atrof-muhit muhofazasi yoki ishchilar huquqlari uchun kurash kabi faoliyatlar ijtimoiy ongning yuqori bo‘lishi natijasida yuzaga keladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy ongning oshishi qonunchilik jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, inson huquqlari yoki ekologik muhofazaga oid qonunlar ijtimoiy harakatlar va jamoatchilik fikri natijasida kuchayishi mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy ongning oshishi madaniy qadriyatlarni o‘zgartirishga yordam beradi. Ijtimoiyadolatga intilish va irqchilikka qarshi harakatlar jamiyatda keng ko‘lamli ijtimoiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin”[5].

Tadqiqot natijalari Yangi O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy me’yorlar va ijtimoiy ongda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berayotganini ko‘rsatdi. Xususan, bu o‘zgarishlar quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

- Qonun oldida barcha teng ekanligi, korrupsiyaga qarshi kurash vaadolatli jamiyat qurish g‘oyalari keng tarqalmoqda.

- So‘z erkinligi, siyosiy faollik va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan intilishlar kuchaymoqda.

- Bilimli, zamonaviy va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan sa‘y-harakatlar faollahmoqda.

- Milliy madaniyat, tarix va an’analarni qadrlash, vatanparvarlik tuyg‘ularini oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

- Turli millat va din vakillarining o‘zaro hurmat va hamjihatlikda yashashiga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy me’yorlar va ijtimoiy ong o‘rtasida dialektik aloqa mavjud. Siyosiy islohotlar va iqtisodiy o‘zgarishlar ijtimoiy ongda yangi qadriyatlar va e’tiqodlarni shakllantirmoqda. Yangi ijtimoiy ong esa ijtimoiy me’yorlarni o‘zgartirishga

va jamiyatni rivojlantirishga turki bermoqda. Ushbu dialektik munosabatni tushunish jamiyatning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, korrupsiyaga toqatsizlik ijtimoiy me’yorga aylanishi uchun ijtimoiy ongda korrupsiyaning jamiyat uchun xavfli ekanligi haqida dastlabki tushuncha shakllangan bo‘lishi kerak. Shu jumladan, ayollarning huquqlarini himoya qilish ijtimoiy me’yorga aylanishi uchun ijtimoiy ongda ayollarning jamiyat rivojida muhim rol o‘ynashi mumkinligi amalda ko‘rsatib berish lozim.

Ijtimoiy ong jamiyat a’zolarining xulq-atvorini yo‘naltirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, jamiyat birligini ta’minalash va ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy me’yorlar ijtimoiy tartibni saqlash, jamiyat a’zolarining xulq-atvorini yo‘naltirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashga xizmat qiladi. Ijtimoiy ongda shakllangan yangi g‘oyalari, qadriyatlar va e’tiqodlar ijtimoiy me’yorlarni o‘zgartirishga turtki beradi. Jamiyatdagi ijtimoiy norozilik va ziddiyatlar yangi ijtimoiy me’yorlarni shakllantirishga va eski me’yorlarni o‘zgartirishga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish yoki rioya qilmaslik natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy baho ijtimoiy ongni shakllantirishga ta’sir qiladi.

Umuman olganda, ijtimoiy me’yorlar va ijtimoiy ong o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar;

- Erkin iqtisodiyotga o‘tish, tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan sa‘y-harakatlar;

- Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, madaniy almashinuv va xalqaro hamkorlik;

- Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish.

XULOSA. Yangi O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy me’yorlar va ijtimoiy ong o‘zgarishlari dialektik jarayon bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Siyosiy islohotlar, iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, ta’lim tizimining

modernizatsiyalashishi ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy ongning o'zgarishiga turtki bermoqda. Fuqarolik jamiyatni institutlarining rolini oshirish va ularni ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy ongni shakllantirish jarayoniga jalb qilish kutilgan natijalarga erishishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy ongning ijobiy o'zgarishi esa jamiyatni rivojlantirishga va yangi, adolatli va farovon jamiyatni barpo qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Durkheim, Émile (1994). Social facts. In Martin, Michael; McIntyre, Lee C. (eds.). *Readings in the Philosophy of Social Science*. Boston, MA: MIT Press. pp. 433–440.
2. William Roseberry (1997) Marx and Anthropology Annual Review of Anthropology, Vol. 26: pp. 25–46 (October 1997).
3. Вебер, М. Основные социологические понятия // Избранные произведения. -М.: Прогресс, 1990. - С. 602-643.
4. Nyborg K. Social norms and the environment //Annual Review of Resource Economics. – 2018. – Т. 10. – С. 405-423.
5. Qadirova M. Ijtimoiy ongni oshirish va uning ijtimoiy muammolarga ta'siri // <https://iiau.uz/oz/news/3490>.

